

## SOTSILOGIYADA DEMOGRAFIK JARAYON

*Erejeпова Sayora Tileumuratovna**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**Tarix fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi talabasi*

**Annototsiya:** Ushbu maqolada demografiya haqida tushinshaga ega bo'lasiz va bundan tashqari demografik ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** demografiya, aholi, statistika, o'rtasha umr ko'rish, xalq.

Tarixdan ma'lum har qanday davlat va xalqning varfo bo'lish vijudga kelish tarixi mavjud. Har bir millat va davlatning qanday varfo bo'lganligi va aholi turmishi deyarli barchani qiziqtirib keladi. Bu yo'nalishlarni o'z ishiga qamrab oladigan ilm bor bo'lib bu demografiya hisoblanadi. Demografiya aholi turmishini, yashash tarizini millatning tarixini o'rganib statistik tahlillar orqali omma e'tiboriga taqdim qiladi. "Demografiyaning maqsadi muayyan hudud, mamlakat, dunyo aholisi va millatning takror barpo bo'lishi jarayoni va omillarini o'rganish, muammolarni belgilab, yechimlarni aniqlash va istiqbolini ko'rsatib berishdan iborat. Demografiyaning vazifalari: demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish, oilaning demografik xususiyatlari, aholining yoshi, jinsi va oilaviy tarkibi, demografik mayl) va ularning omillarini o'rganish; demografik bashorat (ma'lum hudud aholisining soni, yosh-jinsiy tarkibi va demografik vaziyati istiqbolini ilmiy asoslangan holda oldindan aniqlash)larni ishlab chiqish; demografik siyosat (aholi siyosatining uzviy qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi aholining miqdoriy o'sishini boshqarishdan iborat) chora tadbirlarini ishlab chiqish".

Demografik tadqiqot usuli — statistik, tarixiy taqqoslash, haritagrafik, sotsiologik, matematik va mantiqiy fikrlash. Demografiyaning taxliliy metodi statistikadan farq qiladi: unda mavhum fikrlash usulidan keng foydalanish asosida aholi tarkibida kelgusida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlari ham o'rganiladi. Shu jihatdan demografik statistika Demografiyaning bir qismidir. Inson kapitalin rivojlantirish va demografiya holat bir - biri bilan uzviy bog'liq. Agar u yerning demografiya sharoitiga keladigan xavf -xatarlar ortsa, u yerdagi odamlarning umr surish saviyasi va sifati qo'yiladi, bunday holatda inson kapitalining ham qanday qiyin ahvolga tushadiganligida oshkor etmasa ham tushunarli. Demografiya mavzusi yoritilganda bevosita urbanizm, statistika va shunga o'xshagan terminlar ushirab turadi. "Olimlardan biri Uertning urbanizm - turmush tarzi sifatida degan tezisi faxat shaharlarning ishki differentsiyatsiyasi bilan bog'liq ekanligi bilan bir qatorda, urbanizm ijtimoiy mavjudlik shakli sifatida ham muhim ahamiyatga egadir. Katta shaharlarda, deb takidlaydi Uert, ko'pchilik kishilar bevosita bir-

biriga yaqin bo'lgan joylarda yashaydigan aksariyat ko'pchilik bir-biri bilan tanish bo'lmaganligi sababli begonalashib qolaberedi- bunda qishloq joylardagi kishilarning kishik-kishik a'nanaviy odatlardagi sezilarli farqi ha'm o'z ta'sirini otkazadi".<sup>1</sup> Olim bu jumalari orqali urbanizmning jamiyatdagi taraflarini aytib o'tgan. Jumladan aholi sonining o'sib bo'rishi shaharlarda yashaydigan xalq sonining ortib borishiga va bu insonlarning o'z aro begonalashib ketishiga sabab bo'lyabdi deb takidlab o'tadi. Bu esa qishloqlarda yashayotgan aholiga ham bevosita ta'sir etmasdan qolmaydi. Begonaloshuv jarayonining keskinlashishi bu bizning qadiryat va a'nanalarimizga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Demografiya jamiyatning shu javhalarini ham chuqur o'rganishi mumkin ekan.

“Demografiya” nomini birinchi marta farang olimi A. Giyyardi “Inson statistikasi unsurlari yoki solishtirma demografiya” nomli kitabi vujudga keldi. Muallif demografiyaga keng manoda - “inson narsasining tabiiyiy va ijtimoiy tarixi” yoki tor manoda - “aholi, uning umumiy harakati, fizik, fuxorolik, aqliy va odoblilik holatini matematik anglash” sifatida o'rgangan.

“Demografiya” degan nomlari 1882 yilda Jenevada bo'lib o'tgan Gigiena va demografiya bo'yicha kongress rasmiy ta'n olinadi. Demografiyaning paydo bo'lish tarixi qisqasha shular jumlasidan iborat.

Demografiya ilmida biz xalqning yoshga nisbatan farqi, erkak kishilar va xotin-qizlar soni va shunga o'xshagan statistik ko'rsatkishlarni hisoblaydi.

*“Har qanday hududning demografik holatini bahaloshda ishlatiladigan quyidagi asosiy ko'rsatkishlar bor bolib, ular quyidagilar:*

- \* xalq;
- \* tug'ilish darajasi;
- \* o'lim;
- \* ta:biyiy o'sishi;
- \* nikoh va ashirashishlar ;
- \* xalq migratsiyasi;
- \* turmish davom etish vaqti ;
- \* xalq sonining o'zgarish ko'rsatkishlari;
- \* u'y xo'jaliklari va oilalar;
- \* urbanizatsiya darajasi;
- \* xalqning strukturik xususiyati (yoshi, jinisi, milliy, diniy va boshqalar.).

*Hozirgi davrda xalqaro demografik holatning keskinlanishi, orin va makon muammaning insoniyat global masalalarining ajiralmaydigan strukturik qismiga aylanganligin demografik fanlarning keskin rivojlanishiga ta'sir etmoqda.*

<sup>1</sup> Entoni Giddens "Sotsiologiya" T.2002. 633-bet

*Rivojlanyabgan mamlakatlardagi dunyo miqyosida demografik yarilish, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagi demografik paslasish, urbanizatsiya va xalqaro migratsiya masalalari global jarayonni kushayganligining dalili bo'lib hisoblanadi*"<sup>2</sup>.

Demografiya ilmi juda e'tibor talab qiladi ya'ni bu fanda sonli ko'rsatkishlar ish yuritadi. Shu boisdan bunda tadqiqotchi adashib ketishga yoki orin almashtirib xatolik yuz berishga yo'l qoyishga haqqi yo'q. Chunki demografiya Statistika kabi aniq raqamlar va ko'rsatkishlar bilan hisoblanadi va xalq e'tiboriga qaratiladi.

Shu bilan birga " *Demografiyada asosiy kuzatuv birligi - inson hisoblanadi. Inson hayoti davomida uning fiziologik va psixologik xususiyatlari, ma'lumotlilik darajasi, oilaviy darajasi va kasb-kori, malakasi, ijtimoiy guruhi, yashash joyi va til bilish kabi imkoniyatlari o'zgarib boradi. Ana shu inson hayotida ro'y bergan o'zgarishlar yig'indisi umuman aholi hayotida ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o'zgarishlarga olib keladi*"<sup>3</sup>.

Hozirgi bizning jamiyatimizda turli xil fanlar bor. Bu fanlarning vazifa va tadqiqod maqsadlari har xil hisoblanadi. Lekin barcha fanlar ijtimoiy guruhlar va shaxslar bilan tadqiqod o'tkazadi. Bunga misollardan iqtisodiyot fanini olib qarajak bu fan shaxslarning hayotdagi moddiy balansini, moliyaviy savoxonligini o'rganadi. Huquq bo'lsa insonlarning jamiyatdagi qonun doirasidagi harakatini belgilab beradi va imkon qadar uni har jabhada himoya qiladi. Shu jumladan demografiya fani bo'lsa umumiy tushunchani hosil qiladi ya'ni bu fan aholi soni, ularning jamiyatdagi harakati, aholining o'sishi, o'lim holatlari, ularning jamiyatdagi pozitsiyasini belgilab beradi. Qisqasha qilib aytganda demografiya fanining ob'ektini aholi deb hisoblasak bo'ladi. Chunki demografiya ma'mlakatdagi aholida yuz beryabgan harqanday jarayonni o'zining tadqiqod markaziga qo'yadi. Shunday ekan harqanday fan ham demografiya bilan shambarshas bog'liq ekan.

Aslida demografiya, demografik tahlil bizning hayotimizning bir javhasidan orin olgan. Sababi bizning hayotimizda bo'lgan o'zgarishlardan tortib qarorlarimizga qadar barchasi demografik tahlil hisoblanadi. Masalan siz uy xo'jaligingiz uchun qandaydir narsa xarid qilmoqshi bo'lsangiz uni hisoblaysiz va uni moliyaviy tarafdin pikir turitasiz. Haftalarga, oylarga taqsimlaysiz. Bu hisob-kitobning o'zi inson hayotida yuz beradigan demografiya hisoblanadi. Shu sababli biz hayotimizda demografiyadan, alohida ajralib keta olmaymiz.

<sup>2</sup> Zaretdinova Nesibeli Kurbanbaevna. "Qaraqalpaqstan shárayatinda socialliq demografiyani úyreniw zárúrligi" TJSS Thematics Journal of Social Sciences 32-35-b

<sup>3</sup> "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" 15-b

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Entoni Giddens "Sotsiologiya" T.2002. 633-bet
2. Zaretdinova Nesibeli Kurbanbaevna. "Qaraqalpaqstan sháráyatında socialliq demografiyanı úyreniw zárúrligi" TJSS Thematics Journal of Social Sciences 32-35-b
3. "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" 15-b T.2011. M. R. Bo'rieva. Z. N. Tojiev. S. S. Zokirov.